

«УТВЕРЖДАЮ»

Генеральный директор

АО «O'ztemiryo'lyo'lovchi»



Ш.А. Юсупов

«25» Март 2025 год

М.П.



ТЕХНИЧЕСКОЕ ЗАДАНИЕ

«НА ПОСТАВКУ СИСТЕМЫ SMART DEPO»

Ташкент 2025 г.

VAGON axborot tizimini yaratishdan maqsad.

Dasturni yaratish orqali ma'lumot almashish jarayonini tezlashtirish, uning shaffofligini ta'minlash va ish jarayonini bevosita nazorat qilib borish. Elektron shakldagi resurslarni ishlab chiqish, saqlash, qidirish hamda istemolchilarga yetkazib berish kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ma'lumotlarning elektron shaklda bo'lishi undan foydalanish samaradorligini bir necha barobar oshiradi. Foydalanuvchilar bu dastur orqali o'zlariga kerakli ma'lumotni juda tez topishlari va almashishlari mumkin, eng asosiysi, foydalanuvchilarga qulay jihati shundaki, ular istalgan joydan turib kerakli manbaga ega bo'ladi. Bu orqali depo navbatchisi va ta'mirlovchi xodimlarning ishi yengillashadi. Shu kungacha qo'lda yozib kelinadigan jurnallardan halos bo'linadi, hamda ma'lumotlarni topish uchun arxivlarda joylashgan jurnallardan bir necha kun ma'lumot qidirish kerak bo'lmay qoladi. Ma'lumotlarni yagona bazada saqlash orqali vagonlarning holati ham nazoratga olinadi. Har bir vagon holati va uning nosozliklari tarixi shu dastur orqali nazoratda bo'ladi. Vagonlardan foydalanish sifati bir necha bor yaxshilanib, ish unumi oshadi.

VAGON dasturi orqali quyidagi qulayliklarga erishiladi:

- ta'mir ishlari nazoratga olinadi;
- vagonlarning holati haqida kunlik hisobotlar tayyorlanadi;
- depo navbatchisining ishi birmuncha yengillashadi;
- ma'lumot qidirish, almashish va qayd etish juda sezilarli darajada tezlashadi;
- vagonlarning doimiy nuqsonlari aniqlanib bartaraf etiladi;
- vagonlarning nuqson sabab yo'lda to'xtab qolishining oldi olinadi;

VAGON dasturining vazifasi: Ushbu dastur quyidagi vazifalarni bajarishi darkor:

- dasturning ma'lumotlarini to'g'ri va tezkor tahlil qilishi;
- birqancha bo'limni ishini bir-biriga bo'g'lashi;
- Vagonlar ta'mir tarixini o'zida qayt etib borishi.
- Vagonlarga qachon, qaysi tashkilot orqali texnik xizmat ko'rsatilganini qayt etib borishi.
- Ma'lumotlardan kerakli hisobotlarni tez va sifatli tayyorlab berishi.
- Yuqori tashkilotlar dastur orqali vagonlar holatini kuzatib borishini ta'minlash.
- Vagonlar harakati va dislokatsiyasi haqidagi ma'lumotni chiqarib berishi.

VAGON dasturiga qo'yiladigan umumiy talablar.

- normal ishlash rejimi (Internet orqali);
- avariyaaviy ishlash rejimi (Internetsiz);
- dasturni ishga tushirishdan oldin foydalanuvchi mavjudligini tekshirishi, foydalanuvchi mavjud bo'lmasa dastur ishga tushmasligi zarur;

- har bir foydalanuvchi ma'lumotlarini saqlab, foydalanuvchi ma'lumot qo'shgan payti, aynan shu ma'lumotni qachon va qaysi foydalanuvchi qo'shganini avtomatik tarzda ma'lumotlar bazasiga saqlab borishi zarur;
- dastur foydalanuvchilarni klassifikatsiya qilgan holda, foydalanuvchiga aynan u ishlaydigan qismigagina ruxsat berishi zarur;
- dastur bilan ishlaydigan ishchi guruhga esa barcha qismiga ruxsat berilishi zarur;
- dastur Web dastur ko'rinishida bo'lishi kerak;
- dastur interfeysi sodda va tushunarli bolishi kerak;
- dastur kompyuter, planshet va mobil vositalar uchun moslashishi kerak;
- dastur vagonlarning ta'mir tarixini o'zida aks ettirib borishi kerak, ya'ni, dastur orqali vagon ta'mirga olinganda barcha ma'lumotlarni saqlab borishi kerak, vagon ta'mir tarixiga kirilganda barcha ta'mirga olingan vaqtlari va ta'mir tugatilgan vaqtlarini chiqarib berishi kerak;
- dastur ma'lumot bazasidan, ma'lumotlarni klassifikatsiya qilib, avtomatik tarzda hisob olib borishi kerak;
- dasturning statistika uchun alohida sahifasi mavjud bo'lishi kerak;
- foydalanuvchilarning ma'lumot bazalari to'ldirib nazorat qilib borilishi va yangi foydalanuvchi dastur administratori tomonidan kiritilishi zarur;
- dastur doimiy ravishda rivojlantirib borilishi kerak;
- dasturda hozirgi vaqtdagi vagonlarning umumiy soni, ta'mirda turgan vagonlar soni va ish jarayonidagi vagonlar soni avtomatik tarzda ko'rinib turishi kerak;
- dastur orqali barcha vagonlarning texnik ko'rikdan o'tish vaqtlari avtomatik tarzda hisoblanib turishi va texnik ko'rik vaqti yaqinlashgan vagonlar dasturda ajralib turishi kerak;
- dastur vagonlarning ta'mirda turgan vaqtini va ta'mirlashga bo'g'liq hisobotini chiqarib berishi kerak.

t/r	Modullar	Bajarish muddati
4.	1-bosqich: DEPOdagi holat moduli	Depo hududida mavjud vagonlarni joylashuvi. 20ta yo'lga bo'linadi va har bir yo'lda aloxida texnik xizmat mavjudligi xisobga olinsin.
5.	2-bosqich: Vagonlarni yo'nalishi moduli	Vagonlarning qaysi yo'nalishda xarakatlanib ketayotgani haqida ma'lumotlar chiqarib turishi va yo'nalishga oid bosib o'tilgan masofasi avtomatik qo'shilishi.
6.	3-bosqich: Statistika moduli	Umumiy vagonlarning foydalanishda, ta'mirda va ta'mir turlariga qarab klassifikatsiya qilgan holda statistika ma'lumoti.
7.	4-bosqich: Texnik nosozlik haqida xabar berish moduli	Xar bir vagonda mavjud kamchiliklarni onlayn tarzda qayd etib borish va dispatcher shunga asosan chora ko'rishi.
8.	5-bosqich: Ta'mir ishlarini nazorati moduli	Xar bir vagon davriy va mavsumiy ta'mirlarga kirishini onlayn nazorat qilish. Dastur orqali avtomatik tarzda ta'mir vaqti haqida ogohlantirib turish.
8.	5-bosqich: Xisobotlar moduli	Barcha turdagi xisobotlarni ko'rsatilgandek ishlab chiqish va uni ishonchliligini nazorat qilish.

Согласовано:

- Начальник отдела по ремонту

и эксплуатации вагонов.

АО "O'ztemiryo'lyo'lovchi"



Кучкаров Ж.М